

**LIZING (MOLIYAVIY IJARA)
SHARTNOMASI № _____**

“ _____ ” _____ 20__ yil

_____ (tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda “Lizing beruvchi” deb nomlanadi) nomidan “ _____ ” _____ 20__ yildagi № _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ BXO boshqaruvchisi /boshlig'i _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda “Lizing oluvchi” deb yuritiluvchi) _____ nomidan Nizom (*Guvohnoma, Ishonchnoma*) asosida ish yurituvchi _____ ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1 Lizing beruvchi sotuvchidan lizing obyektini mulkchiligiga sotib olish va uni lizing oluvchiga tadbirkorlik maqsadlari uchun vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga, mazkur shartnoma bilan belgilangan muddatga va shartlarda haq evaziga berish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa mazkur shartnomaga muvofiq lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi.

2. Lizing objekti va uning tavsifi

2.1 Lizing objekti bo'lib lizing oluvchi bilan kelishilgan quyidagi mulk hisoblanadi (keyingi o'rinlarda lizing objekti):

_____ (lizing obyektining aniq tavsifi, jumladan, miqdori, sifati, lizing obyektining umumiy qiymati va ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanuvchi _____-son ilovaga ko'ra boshqa ko'rsatkichlari).

2.2 Sotuvchi va lizing obyektini tanlash lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriladi. (qaytariladigan lizing bundan mustasno).

2.3 Lizing oluvchining topshirig'iga ko'ra lizing objekti quyidagi sotuvchidan sotib olinadi: _____

Qaytariladigan lizingda lizing oluvchining topshirig'iga ko'ra lizing objekti o'zidan sotib olinishi va o'ziga qayta lizinga topshiriladi.

2.4 Lizing beruvchi sotib olinadigan mulkni lizing oluvchiga lizingga berish to'g'risida, sotuvchini lizing obyektini sotib olishdan oldin yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.

Qaytariladigan lizingda esa lizing beruvchi sotib olinadigan mulkni lizing oluvchini o'zidan sotib olayotganligi uchun lizing oluvchiga lizingga berish to'g'risida, sotuvchini lizing obyektini sotib olishdan oldin yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini olmaydi.

2.5 Lizing beruvchi va lizing oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olishdan tashqari, lizing obyektini yetkazib berish, uni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan va lizing objekti qiymatiga qo'shiladigan xarajatlar kim tomonidan amalga oshirilishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin. Agar ushbu xarajatlar lizing beruvchi tomonidan amalga oshirilsa, lizing obyektini topshirish qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgunga qadar lizing oluvchi tomonidan qoplanib berilishi yoki qoplanmasdan lizing shartnomasi qiymatiga qo'shilishi to'g'risida kelishib olishi mumkin.

2.6 Lizing uchun lizing beruvchi va lizing oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olishdan tashqari, lizing obyektini topshirish, uni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan va lizing obyektini qiymatiga qo'shiladigan xarajatlar lizing oluvchi hisobidan qilinmagan taqdirda, ushbu xarajatlar lizing beruvchi tomonidan qilinadi. Bunda qilingan xarajatlar lizing obyektini lizing qiymatiga qo'shiladi hamda lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga lizing to'lovi sifatida to'lab boriladi.

3. Tasdiqlash va kafolatlar berish

3.1 Lizing oluvchi yuridik shaxs–tadbirkorlik subyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro'yxatdan o'tkazilgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga ega.

3.2 Lizing oluvchi lizing beruvchiga ariza, lizing oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja, lizing oluvchining taqdim qilgan tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar bundan mustasno; ta'minoti turlariga oid va zarur boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Lizing oluvchi taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riligini kafolatlaydi.

3.3 Lizing oluvchi mazkur shartnoma tuzilayotgan sanaga qadar bo'lgan va lizing beruvchi tomonidan mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni lizing beruvchiga taqdim etadi.

3.4 Lizing oluvchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan va lizing beruvchiga ma'lum qilmagan sud ishlarida da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etmaydi.

3.5 Shartnoma tuzayotgan lizing oluvchi xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarga to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emas.

3.6 Tasdiqlash va kafolatlar berishga lizing oluvchi to'liq hajmda amal qilishi lozim. Shartnomada ko'zda tutilgan tasdiqlash va kafolatlar berishga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda lizing beruvchi lizing oluvchiga lizing xizmatlari ko'rsatishdan bosh tortishga haqli.

4. Shartnoma summasi, muddati va lizing muddati

4.1 Ushbu shartnomaning umumiy summasi lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan, lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olish hamda uni topshirish, foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan va lizing obyektini qiymatiga qo'shiladigan xarajatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

4.2 Shartnoma taraflar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar shartnomadagi barcha majburiyatlarni to'liq bajarib bo'lgunlariga qadar amal qiladi.

4.3 Lizing beruvchi lizing obyektini lizing oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun _____ oy muddatga beradi. Lizing muddati lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab hisoblanadi.

4.4 Lizing xizmati uchun yillik _____ (_____) foiz miqdorida lizing foiz to'lovi belgilandi.

4.5 Lizing oluvchi tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq ajratilgan lizing asosiy qismi va foizlar lizing ajratilgan valyutada qaytarilishi lozim.

Ushbu bilan lizing oluvchi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan lizingni qaytarish grafigida belgilangan sanada vujudga kelgan to'lov majburiyatini amalga oshirish uchun xorijiy valyutadagi hisob varag'ida yetarli yoki umuman mablag' mavjud bo'lmaganida, lizing beruvchiga chaqirib olinmaydigan, shartsiz ravishda o'zining milliy valyutadagi barcha turdagi hisobvarag'laridan navbatdagi majburiyatni so'ndirish uchun yetarli bo'lgan milliy valyutadagi mablag'ni to'lov o'tkazilayotgan kundagi lizing beruvchi bankining sotish kursi bo'yicha xorijiy valyutaga "konvertatsiya" qilgan holda majburiyatni so'ndirishga topshiriq va rozilik beradi. Bunda, lizing beruvchi bankning sotish kursi - bu yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mijozlarga xorijiy valyutani sotish amaliyotlari uchun bank tomonidan belgilangan xorijiy valyuta kurslari.

4.6 Loyihaning ko'rsatkichlari, lizing oluvchining moliyaviy holati hamda lizing obyektining turiga qarab, lizing oluvchi lizing obyektini qiymatining 40 foizidan kam bo'lmagan miqdorida qo'shimcha ta'minot qo'yadi.

4.7 Lizing oluvchi obyekt qiymatining 40 foizi miqdorida qo'shimcha garov sifatida garovini taqdim qiladi.

4.8 Shartnoma tuzilgandan so'ng lizing beruvchi tomonidan lizing obyektini sotib olish uchun mablag' o'tkazilmagan bo'lsa, lizing oluvchining yozma murojati bilan mazkur shartnomaga qo'shimcha kelishuvga asosan bepul asosda shartnoma bekor qilinadi.

5. Lizing obyektini foydalanishga topshirish

5.1 Lizing oluvchi lizing beruvchiga ushbu shartnomaning 16.1-bandida ko'rsatilgan hollardan tashqari oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan lizing obyektini topshirish, uning sifati yoki butligi masalalari bo'yicha biror-bir talab yoki da'vo bildirish huquqiga ega emas.

5.2 Lizing obyektining miqdori, sifati va butligiga ko'ra lizing oluvchiga topshirish lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 12.2-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilgan holatda, lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchining vakillari tomonidan imzolangan, ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchi tomonidan qabul qilib olishini so'ragan vaqtdan boshlab 10 kun muddatda obyektini qabul qilib olishi hamda lizing oluvchining vakili qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.

5.3 Lizing obyektini topshirish qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin lizing obyektini bilan bog'liq bo'lgan barcha tavakkalchiliklar lizing oluvchiga o'tadi.

5.4 Lizing obyektini montaj qilish va foydalanishga topshirish lizing oluvchi kuchi va mablag'lari hisobidan lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab 30 kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

5.5 Lizing obyektini qabul qilish-topshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar lizing oluvchi tomonidan qoplanadi.

6. Lizing obyektiga egalik huquqi

6.1 Mazkur shartnomada nazarda tutilishicha, lizing beruvchi lizing obyektini o'z hisobidan sotib olib, unga egalik qilish huquqini qo'lga kiritadi va ushbu huquq shartnoma amal qilishining butun muddati mobaynida saqlanib qoladi. Lizing beruvchi lizing obyektining egasi sifatida lizing obyektini qonunda belgilangan tartibda o'z ixtiyoricha tasarruf qilish huquqiga ega. Lizing obyektiga egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi ushbu shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugaganida va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lganlarida yoki lizing oluvchi

tomonidan barcha majburiyatlar to'liq bajarilganda hamda sotib olish bahosi to'liq to'langanda lizing obyektiga egalik qilish huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

6.2 Lizing oluvchi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab lizing obyektining saqlanishi uchun javobgarlikni va o'z hisobidan lizing beruvchining unga bo'lgan egalik qilish huquqini uchinchi shaxslarning tajovuzi va talabidan himoya qilish, lizing obyektining yo'qolishi va buzilishi oldini olish bo'yicha zaruriy choralar ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6.3 Lizing oluvchi tomonidan to'lanmagan ya'ni muddatli lizing to'lovlarining qolgan (lizing shartnomasi muddati davomida olinishi rejalashtirilgan foizlar) barcha summalari va sotib olish narxi muddatidan oldin to'langan taqdirdagina, lizing obyektiga egalik qilish huquqi ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatidan oldin lizing oluvchiga o'tishi mumkin.

6.4 Lizing obyektini sotib olinayotgan vaqtda faqat lizing beruvchining nomiga rasmiylashtiriladi. Davlat organlari ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladigan lizing obyektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing beruvchining nomiga rasmiylashtirilishi mumkin.

7. Lizing obyektining joylashish joyi va foydalanish shartlari

7.1 Ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati mobaynida lizing obyektining joylashish joyi bo'lib _____ (manzil) hisoblanadi. Lizing obyektini joylashgan joyining o'zgarishiga faqatgina lizing beruvchining yozma roziligi bilan ruxsat etiladi. Ushbu majburiyat buzilgan taqdirda, lizing oluvchi (yoki uning vakillari tomonidan) lizing beruvchiga buning oqibatida lizing obyektining joylashgan joyini belgilash jarayonida yetkazilgan barcha xarajatlarni ularni qoplash haqidagi talabnoma olingan paytdan boshlab 5 kun ichida qoplab berishi shart.

7.2 Lizing oluvchi lizing obyektidan foydalanish uchun barcha zarur bo'lgan ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va boshqa talablarni o'z hisobidan bajarish, davlat va boshqa vaqolatli boshqaruv organlarining tartibga soluvchi barcha qoidalari va yo'riqnomalariga, shuningdek, lizing muddati vaqtida amal qiluvchi hamda lizing obyektini saqlash, foydalanish, tutib turish va qaytarish bilan bog'liq bo'lgan mahalliy hokimiyat organlarining qonun hujjatlari, qoidalari va qarorlariga itoat etish majburiyatini oladi.

7.3 Lizing obyektining yerga va o'ziga zarar yetkazmagan holda ajratib olish mumkin bo'lmagan mexanizmlar bilan tutib turuvchi, boshqa ko'chmas mulkka birlashtirilishiga faqatgina lizing beruvchining yozma roziligi bilan ruxsat beriladi, texnika xavfsizligi va mulkdan foydalanish qoidalari talablarida nazarda tutilgan texnologik zaruriy birlashtirishlar bundan mustasno.

7.4 Lizing oluvchining lizing obyektini saqlash va foydalanish shartlari quyidagilar:

- a) Lizing obyektidan uning belgilangan vazifasiga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish;
- b) Tayyorlovchi korxonaning tegishli standartlari, texnik shartlari, texnik foydalanish qoidalari va yo'riqnomasiga rioya qilish;
- v) Lizing obyektini ishga yaroqli holatda saqlash;
- g) Lizing obyektining holatini muntazam tekshirib turish;
- d) Lizing obyektini tegishli holatda saqlab turish va agarda lizing beruvchi bilan kelishuvda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, barcha buzilgan qismlarni tayyorlovchi yoki sotuvchi tomonidan yetkazib berilgan yoki tavsiya qilingan qismlar bilan almashtirish. Ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan taqdirda, lizing beruvchi lizing obyektini o'z kuchi bilan va o'z hisobidan ta'mirlash huquqiga ega, lizing oluvchi esa ta'mirlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni unga qoplab berish majburiyatini oladi.

7.5 Lizing oluvchi lizing obyektini ishga yaroqli holatda saqlashi, o'z hisobidan kapital va joriy ta'mirlashi, shuningdek, lizing obyektini tutib turish bo'yicha harajatlarni amalga oshirishi shart.

7.6 Lizing obyektini kapital ta'mirlash lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab 6 oydan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak. Kapital ta'mirlashni amalga oshirishni kechiktirib bo'lmaydigan (shoshilinch) zurruriyat yuzaga kelgan taqdirda, lizing oluvchi bunday zarurat yuzaga kelgan paytdan boshlab 15 sutkadan kechiktirmay uni amalga oshirish majburiyatini oladi.

8. Lizing obyektidagi o'zgarishlar

8.1 Lizing oluvchi lizing beruvchining rozilgisiz lizing obyektiga biror-bir zarar yetkazmagan holda ajratib bo'ladigan lizing obyektini qismini yaxshilash huquqiga ega. Lizing oluvchi tomonidan amalga oshirilgan lizing obyektidan ajratib bo'ladigan yaxshilanish lizing oluvchining mulki hisoblanadi.

8.2 Lizing oluvchi lizing obyektidan ajratib olib bo'lmaydigan yaxshilanishini faqatgina lizing beruvchining yozma roziligi bilan amalga oshirish huquqiga ega. Agar lizing oluvchi lizing beruvchining oldindan yozma rozilgisiz lizing obyektini ajratib olib bo'lmaydigan yaxshilanishini amalga oshirsa, lizing oluvchi lizing beruvchining birinchi talabiga ko'ra amalga oshirilgan o'zgartirishlarni o'z hisobidan yo'qotishi va lizing obyektini dastlabki holatiga tiklashi shart.

8.3 Ushbu shartnomaning 25.6-bandida ko'zda tutilgan asoslarga ko'ra shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan va lizing obyektini lizing beruvchiga qaytarilgan taqdirda, lizing oluvchining qarzi lizing beruvchining roziligi bilan amalga oshirilgan lizing obyektini ajratib bo'lmaydigan yaxshilanish qiymati summasiga kamaytiriladi.

8.4 Lizing oluvchi lizing obyektiga qilinishi mumkin bo'lgan barcha o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar uning ishlab chiquvchisi yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshirishi kerak.

8.5 Lizing oluvchi lizing obyektidan foydalanish davrida lizing obyektiga barcha xarajatlarni (komunal to'lovlar, barcha turdagi soliqlar va boshqa barcha xarajatlar) o'z xisobidan amalga oshiradi, agarda ushbu xarajatlar lizing beruvchi tomonidan amalga oshirilsa ushbu xarajatlarni lizing beruvchiga to'lab berish yuzasidan yozma yoki og'zaki ogohlantirilganidan so'ng 3 kun ichida to'lab berish majburiyatini oladi.

8.6 Lizing obyektini ko'chmas mulk bo'lganda, lizing obyektidan foydalanish davrida lizing obyektiga biriktirilgan yer solig'i lizing oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.

Qaytariladigan lizing uchun lizing obyektini ko'chmas mulk bo'lganda, lizing obyektidan foydalanish davrida lizing obyektiga biriktirilgan yer solig'i lizing oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.

9. Ma'lumotlarni taqdim etish, nazorat qilish

9.1 Lizing oluvchi lizing beruvchining talabiga ko'ra butun lizing muddati mobaynida o'zining moliyaviy ahvoli to'g'risida, shuningdek shartnoma obyektiga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Lizing oluvchi har qanday vaqtda lizing beruvchining talabiga ko'ra unga o'zining iqtisodiy holati, lizing to'lovlarini to'lash istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek lizing oluvchi tomonidan lizing obyektiga egalik qilish va foydalanish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim qilishi shart. Lizing oluvchi talab qilinadigan ma'lumotlarni lizing

beruvchiga tegishli so'rov olingan paytdan boshlab 15 kalendar kuni ichida taqdim qilish majburiyatini oladi.

9.2 Lizing beruvchi lizing oluvchi korxonasida o'rnatilgan ish vaqti mobaynida lizing beruvchi tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha lizing oluvchining lizing obyektidan qay tarzda foydalanayotganligini tekshirish huquqiga ega. Tekshirish jarayonida lizing oluvchi lizing beruvchiga lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning shartlari tegishli ravishda bajarilayotganligini nazorat qilish maqsadida yoki lizing oluvchining ushbu shartnomaga ko'ra o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarish imkonini baholash maqsadida so'ralayotgan har qanday zarur bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar, buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlar yoki hisobotlarni taqdim etishi shart.

9.3 Lizing oluvchi maqsadli tekshirish o'tkazish va lizing obyektining holatini baholash uchun lizing beruvchining xodimlarini yordamchi, ishlab chiqarish, ombor va boshqa binolariga kiritish majburiyatini oladi.

9.4 Lizing oluvchi o'z tashabbusi bilan ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga muhim ta'sir ko'rsatadigan yoki lozim darajada bajarishiga tahdid soladigan barcha holatlar to'g'risida lizing beruvchiga kechiktirmay xabar berishi shart.

9.5 Lizing beruvchi shartnoma amal qilishi davomida lizing oluvchining moliyaviy ahvoli, lizing obyektining joylashgan joyi va holatini tekshirish va lizing oluvchi tomonidan o'ziga olingan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega.

9.6 Lizing beruvchi lizing oluvchining hujjatlari va lizing obyektining tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega.

9.7 Lizing oluvchi o'z muassislari (ishtirokchilari)ning o'tkazilishi rejalashtirilayotgan umumiy yig'ilishlari haqida, bunday yig'ilishning kun tartibini taqdim etgan holda lizing beruvchini yozma ravishda xabardor qilishi, shuningdek lizing beruvchining vakillarini bunday yig'ilishlarga kiritishga majbur.

10. Huquq va majburiyatlarining ushbu shartnoma bo'yicha uchinchi shaxslarga o'tishi

10.1 Ushbu shartnoma asosida lizing beruvchiga tegishli bo'lgan huquqlar (talablar) uchinchi shaxslarga ham to'liq, ham qisman berilishi mumkin. Bunday holatda lizing beruvchi lizing oluvchini huquqlar (talablar)ning o'tganligi haqida kechiktirmay xabardor qilish majburiyatini oladi.

10.2 Lizing oluvchi quyidagi huquqlarga ega emas:

- a) Lizing obyektini sotish va uni yo'qotishga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirish;
- b) Lizing obyektini xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav kapitaliga ulush sifatida kiritish;
- v) Lizing obyektini oddiy sherikchilik (birgalikdagi faoliyat) ishtirokchisining ulushi (hissasi) sifatida kiritish;
- g) Lizing obyektini garovga berish;
- d) Lizing obyektini har qanday holatda xam, lizing beruvchining yozma roziligisiz ijaraga berilishi.

10.3 Lizing oluvchi lizing beruvchining oldindan yozma ravishdagi roziligisiz lizing obyektini qo'shimcha lizingga berish huquqiga ega emas. Qo'shimcha lizing shartnomasining hech bir qoidasi lizing beruvchining ushbu shartnoma bo'yicha huquq va manfaatlarini cheklab qo'ya olmaydi.

10.4 Lizing oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yoki undan kelib chiqadigan biror-bir manfaatlarini lizing beruvchining yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqiga ega emas.

11. Lizing obyektining tasodifiy yo'q bo'lish tavakkalchiligi, uning yo'qolishi yoki buzilish oqibatlari

11.1 Lizing obyektining tasodifiy yo'q bo'lish va buzilish tavakkalchiligi lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab lizing oluvchiga o'tadi.

11.2 Lizing obyektini buzilgan taqdirda, lizing oluvchi o'z hisobidan lizing obyektini darhol tiklashi va uni ishga yaroqli holatda tutib turishi shart. Bunda ushbu shartnoma o'zgarishsiz qoladi, lizing oluvchi esa ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatda lizing to'lovlari to'lashni davom ettiradi.

11.3 Lizing obyektining yo'qolishi, buzilishi, o'g'irlanishi yoki lizing obyektining o'z funksiyasini yo'qotishi hollarida yohud, agar lizing obyektini lizing oluvchi javob bermaydigan hollar oqibatida foydalanish uchun yaroqsiz holga kelishi hollarida lizing oluvchi ushbu shartnomaga muvofiq lizing beruvchiga to'lashi lozim bo'lgan lizing to'lovlari summasi va yuqorida ko'rsatilgan hollar yuzaga kelgan paytda amalga oshirilgan harajatlar summasi o'rtasidagi farqni lizing beruvchiga kechiktirmay o'tkazib berishi kerak.

11.4 Ushbu bo'limning qoidalari mazkur shartnomaning 11.3-bandida ko'rsatilgan holatlar lizing beruvchining aybli harakatlari va harakatsizliklari natijasida sodir bo'lgan taqdirda tatbiq etilmaydi.

12. Lizing obyektini sug'urtalash

12.1 Lizing obyektini quyidagi tavakkalchiliklardan sug'urtalangan bo'lishi kerak: nobud bo'lish, yo'qolish, o'g'irlash, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qanday yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar. Sug'urta shartnomasi 3 kun muddatda tuzilishi va lizing beruvchiga taqdim etilishi kerak.

12.2 Lizing obyektini sug'urtalash lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriladi. Lizing obyektini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini oluvchi lizing beruvchi bo'lishi kerak va sug'urtalash shartnomasining barcha shartlari u bilan oldindan kelishib olinishi kerak. Sug'urta polisi (sug'urta polisi nusxasi) lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolash paytida lizing beruvchiga topshirilishi kerak. Sug'urta pulining barcha summasi to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan lizing beruvchiga taqdim etilishi shart.

12.3 Sug'urta shartnomasi ushbu lizing shartnomasining amal qilishining butun muddati davomida amal qiladi.

12.4 Sug'urta hodisa(lar)i yuzaga kelganda to'lanadigan barcha summalarni lizing beruvchi oladi. Lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga, lizing obyektining halokatga uchrashi yoki buzilishi natijasida yuzaga kelgan zararining o'z hisobidan qoplanishi, neustoyka va foizlarning to'lanishi holatlarida ko'rsatilgan summa, lizing beruvchi tomonidan olingan sug'urta to'lovlari summasi va ko'rilgan zarar qiymati o'rtasidagi ijobiy farq lizing beruvchining hisob raqamiga pul mablag'lari o'tkazilgan paytdan boshlab 10 sutkadan kechiktirmay lizing oluvchining hisob raqamiga o'tkaziladi.

12.5 Sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan pul mablag'larining yetarlicha emasligi lizing oluvchidan ushbu shartnomada nazarda tutilgan lizing to'lovlari, neustoyka va zararlarni to'liq qoplash uchun zarur bo'lgan summani undirish uchun dalil bo'lib hisoblanadi.

12.6 Sug'urta shartnomasi bekor qilingan, tugatilgan yoki lizing obyektining umumiy qiymatining qoplanmagan qismi mavjud bo'lishi sharti bilan lizing obyektining sug'urta himoyasi yo'qotilgan taqdirda, lizing oluvchi bunday bekor qilinish, tugatilish yoki bunday yo'qotilish paytidan 5 kun ichida lizing obyektining – ushbu shartnomaning 12.1-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisalaridan, 12.2-bandida ko'rsatilgan shartlarda sug'urta himoyasini yangidan ta'minlashi va lizing obyektining sug'urtalanganligi faktini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini lizing beruvchiga 5 kun ichida taqdim etishi shart.

13. Lizing oluvchining huquq va majburiyatlari

13.1 Lizing oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 13.1.1 Garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlash;
- 13.1.2 Lizingdan foydalanish, uni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha lizing beruvchining mansabdor shaxslariga murojaat qilish;
- 13.1.3 Shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;
- 13.1.4 Istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz lizingni muddatidan oldin so'ndirish;
- 13.1.5 Lizing ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to'g'risida lizing beruvchidan maslahatlar olish;
- 13.1.6 Lizing beruvchidan shartnomada belgilangan shartlar asosida belgilangan miqdorda lizing mablag'ini o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;
- 13.1.7 Qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash.
- 13.1.8 Lizing oluvchi lizing obyektini va uni sotuvchisini mustaqil ravishda tanlash, lizing beruvchidan lizing shartnomasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish, sotuvchiga lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqib uning sifati va butligi topshirish muddati, kafolati, lizing obyektini yetkazib berilmagan taqdirda, yetkazib berilgan lizing obyektidan voz kechish, lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, o'zi avans sifatida to'lagan to'lovlarni lizing obyektidan foydalanishdan olgan foydaning qiymati, zararlar va boshqa xarajatlarni chegirib tashlagan holda qaytarib berishni talab qilishi mumkin.

13.2 Lizing oluvchining majburiyatlari quyidagilar:

- 13.2.1 Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari yoki ushbu shartnomaga muvofiq lizing beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa pul mablag'lari (penya, jarima va boshqalar)ni to'liq to'lab berish kechiktirilgan taqdirda, lizing beruvchi lizing oluvchining hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi har qanday bankdagi lizing oluvchining hisob raqamidan pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish huquqiga ega.
- 13.2.2 Lizing oluvchining mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish lizing oluvchining barcha hisob raqamlariga akseptsiz to'lov talabini qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 13.2.3 Lizing oluvchi o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka ushbu shartnoma bo'yicha qarzlarni to'lash maqsadida lizing beruvchining topshirig'i va to'lov talabnomalarini so'zsiz bajarish vakolatini topshiradi.

- 13.2.4 Ushbu modda qoidalarini amalga oshirish maqsadida taraflar lizing oluvchiga xizmat ko'rsatuvchi bank ishtirokida qo'shimcha shartnoma tuzish huquqiga egalar. Unga ko'ra, ushbu moddaning 13.2.1-bandida belgilangan hollarda lizing beruvchi lizing oluvchining hisobvarag'i (hisobvaraqlari)dan pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish huquqiga ega.
- 13.2.5 Lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchining barcha bank hisobvaraqlari shartnomasining mazkur 13.2-bo'limda ko'rsatilgan shartlariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida, bank hisobvarag'i shartnomasi tuzilgan yoki tuzib bo'lingan bank hisobvarag'i shartnomasiga shartnoma tuzilgan sanadan keyin o'zgartirish kiritilgan hollarda, shuningdek, har qanday bank hisobvarag'i shartnomasining amal qilishi bekor qilingan (tugatilgan) hollarda lizing oluvchi ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab 5 kun ichida lizing beruvchini sodir bo'lgan holatlar haqida yozma ravishda xabardor qilishi va tuzilgan bank hisobvarag'i shartnomasi yoki o'zgartirish kiritish haqidagi kelishuv yohud bekor qilish haqidagi kelishuvning notarial tasdiqlangan nusxasini taqdim etishi shart.
- 13.2.6 Ushbu shartnomaga muvofiq lizing oluvchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning lozim darajada biror-bir likvidlik garov turi bilan ta'minlangan bo'lishining bajarilishi uchun quyidagi garov ta'minoti taqdim etiladi:
- a) garov (ko'char yoki ko'chmas mulk)
 - b) uchinchi shaxslar kafilligi;
 - v) kafolat xati yohud qonunda taqiqlanmagan boshqacha likvidlik ta'minot turlari bilan bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
- 13.2.7 Ushbu shartnomaning shartlariga muvofiq pul majburiyatlarini bajarish ta'minotini taqdim etish bo'yicha lizing oluvchining majburiyatlari ushbu shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida bajarilgan bo'lishi kerak.
- 13.2.8 Lizing oluvchining ushbu shartnomaning shartlari bilan belgilangan majburiyatlarini bajarish ta'minoti to'liq yoki qisman tugatilgan (har qanday turdagi yo'qotishlar) taqdirda, lizing oluvchi bunday tugatilish paytidan boshlab 5 kalendar kuni ichida lizing beruvchiga dastlabki ta'minotga o'xshashi lozim bo'lgan ta'minotni taqdim etishi shart.
- 13.2.9 Lizing beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra lizing oluvchidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishning ushbu bo'limda ko'rsatilganlaridan tashqari qo'shimcha ta'minotini talab qilish huquqiga ega. Ushbu holda lizing oluvchi lizing beruvchining talabini olgan paytdan boshlab 5 kalendar kuni ichida lizing beruvchiga talab qilingan ta'minotni taqdim etishi shart.
- 13.2.10 Ushbu bo'limda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish ta'minotining o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun lizing oluvchi ushbu shartnomaning 14.1.4-bandiga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 13.2.11 O'zining mulkchilik yoki egalik (tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, ta'sischilar, boshqaruv organlaridagi tarkibiy o'zgartirishlar va boshqalar) shakli o'zgarishi, qayta tashkil etilishi yoki faoliyatining to'xtatilishi, shuningdek, joylashgan manzilining o'zgarishi, faoliyat yuritishi uchun ta'sir etuvchi litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi

hujjatlarining bekor qilinganligi, amal qilish muddatlari tugaganligi, to'xtatilganligi, qarz oluvchi bilan aloqa o'rnatishda foydalanadigan aloqa ma'lumotlari hamda aloqa usullarining o'zgarishi haqida kreditorni kamida 10 kalendar kun avval yozma ravishda xabardor qiladi.

- 13.2.12 Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida lizing oluvchi lizing beruvchining oldindan bildirilgan roziligisiz uchinchi taraflar bilan bajarilishi ushbu shartnomaning shartlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan yoki lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarilishiga tahdid soladigan hech qanday kelishuvga kelmasligi kerak.
- 13.2.13 Lizing oluvchi ixtiyoriy ravishda sotuvchi va lizing obyektini tanlagan holda, lizing to'lovlarni to'lashni kechiktirish va lizing obyektini yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, topshirish kechiktirilgan yoki lozim bo'lmagan sifatda yetkazib berilgan taqdirda, lizing obyektidan voz kechish yoki ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega emas, ko'rsatilgan qoidabuzarliklar lizing beruvchining aybli harakati (harakatsizligi) oqibatida yuzaga kelgan hollar bundan mustasno.
- 13.2.14 Mazkur shartnoma asosida xorijiy kredit liniyalari hisobidan lizing xizmati ko'rsatilgan taqdirda, ushbu kredit mablag'lari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zlashtirilishi haqidagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit sifatida to'liq hajmda amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda davlat statistika hisoboti shakllarida qat'iy tartibda aks ettiradi.
- 13.2.15 Lizing oluvchi o'z faoliyatini amalga oshirilishi jarayonida ekologik va ijtimoiy menejment siyosati talablariga amal qilish majburiyatini oladi.
- 13.2.16 Lizing beruvchi tomonidan monitoring davomida lizing ta'minoti majburiyatni qoplashga yetarli emas deb topilgan taqdirda, qarzdor tomonidan lizing beruvchiga lizing ta'minoti sifatida qo'shimcha garov taqdim qiladi.
- 13.2.17 Agar lizing va unga bog'liq lizing oluvchining barcha majburiyatlarni qaytarilishi muammoga aylanib, lizing ta'minoti uchun qo'yilgan mulk qarzdorlikni undirish uchun yetarli bo'lmasa qarzdorlikni o'zining boshqa likvidli mol-mulklari hisobidan qaytarilishini ta'minlaydi.
- 13.2.18 Lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lov jadvaliga asosan qaytarib borishni ta'minlaydi.
- 13.2.19 Lizing obyektini qabul qilib olishi va undan lozim darajada foydalanishi, uni shartnoma shartlariga muvofiq saklab turishi, lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lab borishi, lizing obyektini o'z hisobidan joriy tamirlashi, uni saqlab turishi, lizing shartnomasi bekor qilinganda lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchidan qanday holatda olingan bo'lsa, shunday holatda, normal eskirishini hisobga olgan holda qaytarishi, lizing obyektini sotuvchi tomonidan yetkazib berilmagan taqdirda, lizing oluvchi tomonidan to'lab berilgan mablag'larni to'lab berish majburiyatini oladi.
- 13.2.20 Lizing oluvchi faqatgina lizing beruvchining yozma roziligiga asosan lizing obyektini to'liq yoki qisman ijaraga berishi mumkin.

14. Lizing beruvchining huquq va majburiyatlari

14.1 Lizing beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

14.1.1 Lizing oluvchining lizing obyektidan qanday sharoitlarda foydalanayotganligini va uni belgilangan maqsadga muvofiq ishlatayotganligi, lizing shartnomasi shartlariga hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilish, lizing oluvchining roziligi bilan lizing obyektini va uni sotuvchisini tanlash, qonun hujjatlarida yoki lizing shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda lizing oluvchidan lizing obyektini talab qilib olish, lizing oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda bo'zgan taqdirda barcha lizing to'lovlarini muddatidan ilgari to'lashni yoxud yetkazilgan zararni undirib va (yoki) lizing obyektini qaytib olgan tarzda shartnomani bekor qilishni talab qilishi mumkin.

14.1.2 Lizing beruvchi tomonidan monitoring davomida lizing ta'minoti majburiyatni qoplashga yetarli emas deb topilgan taqdirda, qarzdor tomonidan lizing beruvchiga lizing ta'minoti sifatida qo'shimcha garov talab qilishga xaqli.

14.1.3 Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari yoki ushbu shartnomaga muvofiq lizing beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa pul mablag'lari (penya, jarima va boshqalar)ni to'lash kechiktirilgan taqdirda, lizing beruvchi lizing oluvchining hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi har qanday bankdagi lizing oluvchining hisob raqamidan pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish huquqiga ega.

14.1.4 Lizing oluvchi tomonidan quyidagi holatlardan hech bo'lmasa bittasiga yo'l qo'yilgan taqdirda shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi va bunda lizing beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi, lizing va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirish, undiruvni garovdagi mulklarga va lizing obyektlariga qaratishi yohud lizing obyektini qaytarib olishi talabini qo'yishi mumkin:

- a) Biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi, belgilangan pul tushumlarining biznes-reja ko'rsatkichlariga muvofiq emasligi;
- b) Lizing oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- c) Bank roziligisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;
- d) Bank roziligisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- e) Ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'rilanishi, talon-toroj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyukturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida lizingni ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha bank talabini bajarilmasligi;
- f) Lizing monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;
- g) Bankka ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;
- h) Lizing va unga hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;
- i) Lizing va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni vaziyatidan qat'iy nazar, o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;
- j) Lizing oluvchi faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida ekologiya talablarining buzilganligi;
- k) Lizing oluvchi ushbu shartnoma yuzasidan belgilangan o'z majburiyatlarini to'liq yoki lozim darajada bajarmasligi.

14.2 Lizing beruvchining majburiyatlari:

- 14.2.1 Lizing oluvchi tomonidan shartnomaga asosan lizing majburiyatlarini to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha garovda turgan mulkni taqiqdandan chiqarish va garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan lizing beruvchining huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reestridan chiqarish;
- 14.2.2 Lizing oluvchiga lizing shartnomasida nazarda tutilgan lizingni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu lizing bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan lizing oluvchiga lizing berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;
- 14.2.3 Lizing shartnomasi buyicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, lizing oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida qarz oluvchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida (taqdim etilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqqan holda) xabar berish.
- 14.2.4 Lizing shartnomasi bo'yicha mol-mulkni olishi va uni lizing oluvchiga egalik qilish yoki foydalanish uchun berishi, lizing oluvchi uchun mol mulk olayotganda mol-mulk muayyan shaxsga lizingga berishga muljallanganligini sotuvchiga ma'lum qilishi, lizing obyektini, agar shartnomada shunday shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, saqlab turish, ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha lizing oluvchi oldida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi shart.

15. Lizing to'lovlari

15.1 Lizing oluvchi lizing obyektiga haqiqatda egalik qilishi va foydalanishidan qat'i nazar ushbu shartnomaning butun amal qilish muddati mobaynida ushbu shartnoma bo'yicha lizing to'lovlarini o'z vaqtida olish huquqiga ega bo'lgan lizing beruvchiga davriy lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi. Ushbu shartnoma bo'yicha lizing to'lovlari o'z ichiga quyidagilarni oladi: lizing beruvchiga lizing obyektini qiymatining to'liq to'lanishi, lizing bo'yicha mukofotlash.

15.2 Lizing obyektini topshirish, uni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan va lizing obyektini qiymatiga qo'shiladigan xarajatlarni lizing oluvchining yozma talabnomasiga asosan to'lab beradi.

15.3 Lizing beruvchi bankida ochilgan depozit hisobraqamiga (garov sifatida olingan depozit summasi), agarda muddatli majburiyatnomaga asosan asosiy qarz va foiz to'lovlarini o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, lizing oluvchi tomonidan quyilgan depozit mablag'laridan to'lanmagan muddatli joriy qarzdorlik evaziga lizing beruvchi tomonidan proporsional to'lash uchun yo'naltiriladi.

15.4 Taraflar shunday kelishuvga kelishdiki, ushbu shartnoma bo'yicha barcha lizing to'lovlari hajmi bo'yicha va muddatlari bo'yicha ushbu shartnomaga ilovada keltirilgan lizing to'lovlari jadvaliga ko'ra amalga oshiriladi.

15.5 Bir to'lov topshiriqnomasi bilan lizing to'lovlarini to'lash chog'ida to'lov maqsadida asosiy qarz summasi, foizlar summasi, shuningdek, ushbu to'lovlar qaysi davr uchun amalga oshirilishiga ko'ra lizing to'lovi summasining yoyilmasi berilgan bo'lishi kerak.

15.6 Ushbu shartnoma bo'yicha lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan lizing to'lovlarning har qanday summasi to'lovlar jadvalida belgilangan ketma-ketlikda hisobga olinadi.

15.7 Lizing to'lovi amalga oshirilgan sana bo'lib lizing oluvchining hisobvarag'idan pul mablag'larining lizing beruvchining hisobvarag'iga kelib tushish sanasi hisoblanadi.

15.8 Ta'mirlash yoki lizing obyektini almashtirish natijasida, shuningdek, boshqa har qanday sababga ko'ra, lizing obyektining bekor turib qolgan vaqtida ham lizing to'lovlari lizing oluvchi tomonidan to'liq summada belgilangan to'lov jadvali asosida to'lanadi.

15.9 Lizing oluvchi lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing to'lovlari to'lanmagan summasing barchasini yoki ma'lum bir qismini muddatdan ilgari to'lash huquqiga ega. Bunda lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi butun bir muddati uchun lizing foizlarini lizing beruvchiga to'laydi.

15.10 Agar lizing obyektining bir qismi avvalroq yetib kelsa va undan asosiy qismidan ajralgan holda foydalanish imkoni mavjud bo'lsa, lizing obyektini ushbu qismini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi orqali lizing oluvchiga berib alohida muddatli majburiyatnoma rasmiylashtiriladi.

15.11 Lizing oluvchi lizing beruvchidan o'zining pul majburiyatlari bajarilganligini tasdiqlashni talab qilish huquqiga ega.

16. Taraflarning javobgarligi

16.1 Lizing beruvchi lizing oluvchiga, yetkazib beruvchining aybli harakatlari (harakatsizliklari) sabab bo'lgan lizing obyektini topshirish muddati buzilgan hollar mustasno, keyingi holatda lizing beruvchi har bir kechiktirilgan kun uchun ushbu shartnoma qiymatidan 0,2 foiz miqdorida, biroq 30 kundan ko'p bo'lmagan miqdordagi neustoyka to'laydi.

16.2 Lizing obyektining qabul qilish amalga oshiriladigan joyga, 5 kun muddatda lizing beruvchining vakili yetib kelmasligi tegishli harakatlarni bajarishni rad etish deb qaraladi va lizing oluvchiga o'z ixtiyoriga ko'ra lizing obyektining miqdori va/yoki sifati bo'yicha qabul qilish yoki lizing beruvchi va sotuvchi bilan kelishilgan holda lizing obyektini qabul qilish sanasini 10 sutkadan oshmaydigan muddatga o'tkazish huquqi beriladi. Keyingi holatda lizing beruvchi eng kam ish haqqini 20 (yigirma) barobari miqdorida neustoyka (jarima ko'rinishida) to'laydi.

16.3 Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda, to'lov muddati o'tgan kundan boshlab, muddati o'tgan lizing summaga nisbatan belgilangan foiz stavkasi 1,5 (bir butun o'ndan besh) barobarga oshirilgan holda hisoblab undiriladi. Lizing oluvchi lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan hamda ular yuzasidan muddati o'tgan qarzlarni yuzaga kelgan hollarda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun bankka muddati o'tgan lizing qarzdorligiga nisbatan 0,2 foiz, muddati o'tgan foiz to'lovlariga nisbatan 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi. Penya lizing oluvchi tomonidan muddati o'tkazib yuborilgan summadan to'lov amalga oshirilishi kerak bo'lgan kundan, lizing oluvchi tomonidan muddati o'tgan majburiyat bajarilgunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

16.4 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha yoki taraflar o'rtasidagi ushbu shartnomaning 25.6-bandida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra shartnomaning bekor qilinishi (tugatilishi)ga olib kelgan boshqa kelishuvlar bo'yicha o'z majburiyatlaridan birortasi buzilgan taqdirda, lizing beruvchi lizing to'lovlarning qolgan barcha to'lanmagan summalarini talab qilish huquqiga ega bunda, lizing to'lovlarning to'liq summasidan talab qo'yilgan paytda lizing oluvchi tomonidan haqiqatda to'langan lizing to'lovlari summasi ayrib

tashlanadi, u tomonidan ushbu shartnoma bilan belgilangan jarima sifatida to'langan, shuningdek, u tomonidan lizing to'lovlarining o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya sifatida to'langan summalar kiritilmaydi. Bunday talabning qo'yilishi lizing oluvchini muddati o'tkazib yuborilgan lizing to'lovi (to'lovlari) bo'yicha qarzlarning summasi bo'yicha hisoblab yozilishi lozim bo'lgan penyalarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

16.5 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomada nazarda tutilgan sanadan boshlab 10 sutka ichida sug'urta haqining kiritilganlik holatini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, lizing beruvchi o'z hisobidan lizing obyektini sug'urta qildirish va lizing oluvchidan sug'urtalash bilan bog'liq barcha harajatlarni to'lashni talab qilish huquqiga ega. Bunday holatda lizing oluvchi ko'rsatilgan xarajatlarni to'lash bo'yicha talab bildirilganidan so'ng 5 kalendar kun muddatda to'lash va eng kam ish haqi miqdorining 5 barobari miqdorida neustoyka to'lash (jarima ko'rinishida) majburiyatini oladi.

16.6 Lizing oluvchi tomonidan o'z vaqtida kapital ta'mirlash amalga oshirilmagan taqdirda, lizing beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra:

- a) Shartnomada nazarda tutilgan yoki kechiktirib bo'lmaydigan zaruriyat sabab bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish va lizing oluvchidan ta'mirlash qiymatini undirish;
- b) Lizing to'lovlari summasiga tegishli o'zgartirishlar kiritishni talab qilish huquqiga ega.

16.7 Lizing oluvchining aybi bilan lizing obyektini shikastlangan va ushbu shartnomaning 11.2-bandiga muvofiq lizing oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni bajarilmagan taqdirda, lizing beruvchi o'z hisobidan lizing obyektini tiklash huquqiga ega. Bunday holatda lizing oluvchi lizing beruvchiga amalga oshirilgan xarajatlarni to'lash haqidagi talabi qo'yilgan sanadan 5 kalendar kun ichida barcha amalga oshirilgan xarajatlarni qoplab berish va eng kam ish haqi miqdorining 10 barobari miqdorida neustoyka (jarima ko'rinishida) to'lash majburiyatini oladi.

16.8 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 17.2-bandiga muvofiq lizing obyektini qaytarish bo'yicha majburiyat buzilgan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchidan lizing obyektini qaytarish to'g'risida talabnoma olganidan so'ng, lizing obyektini lizing oluvchining egaligida bo'lgan davr mobaynida har bir kun uchun eng kam ish haqi miqdorining 2 barobari miqdorida neustoyka to'lash majburiyatini oladi.

16.9 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha lizing beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, lizing oluvchi tomonidan bo'lishi mumkin zararlarni qoplash va jarima sanksiyalarini to'lash ushbu shartnomaning 13.2.1-13.2.6-bandlariga muvofiq uning pul mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

17. Lizing obyektini qaytarish, olib qo'yish shartlari va tartibi

17.1 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 25.6-bandi a), b), v), g), d), ye) kichik bandlarida ko'rsatilgan shartlar buzilgan taqdirda yoki taraflar o'rtasidagi boshqa kelishuvlar bo'lganida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa vaziyatlarda lizing obyektini Sudning qaroriga yoki Notariusning ijro xatiga muvofiq lizing beruvchining talabiga ko'ra lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga bust butun ya'ni soz xolatda qaytariladi.

17.2 Lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchining lizing obyektini qaytarish to'g'risidagi talabnomasi olinganda, lizing oluvchi lizing beruvchining ixtiyoriga ko'ra yoki lizing obyektini haqiqatda joylashgan joyida lizing beruvchining vakiliga topshirish yo'li bilan lizing obyektini qaytarishi yoxud talabnoma olingan paytdan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida lizing obyektini agarda lizing beruvchining talabnomasida boshqa manzil ko'rsatilmagan

bo'lsa, lizing beruvchining ushbu shartnomada ko'rsatilgan manziliga yetkazishi shart (lizing obyektini ko'chmas mulk bo'lgan hollarda, obyektning bo'shatib qo'yishi va lizing beruvchiga topshirishi lozim).

17.3 Lizing obyektining miqdori bo'yicha qaytarilishi taraflar tomonidan imzolangan qaytarish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

17.4 Lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchining egaligiga qaytargan paytdan boshlab ushbu shartnomada nazarda tutilgan lizing obyektini sotib olish huquqini yo'qotadi (nazarda tutilgan sotib olish huquqidan foydalanmagan bo'lib hisoblanadi). Bunday sotib olish huquqi lizing beruvchining yozma roziligi mavjud bo'lgandagina lizing oluvchi uchun saqlanishi mumkin.

17.5 Lizing obyektini qaytarilgan yoki olib qo'yilgan holda lizing obyektini uning saqlanish joyigacha joylashtirish ushbu shartnomaning 25.9-bandida ko'rsatilgan hollardan tashqari lizing oluvchining hisobidan amalga oshiriladi.

17.6 Lizing obyektining qaytarilishi yoki olib qo'yilishi lizing oluvchini ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar, shu jumladan, lizing to'lovlarini to'lash, neustoyka (jarima, penya) to'lash, ham lizing obyektiga, ham lizing beruvchiga yetkazilgan zararni to'liq hajmda qoplash bo'yicha majburiyatlarni bajarish zaruriyatidan ozod etmaydi.

17.7 Qaytarilgan yoki olib qo'yilgan lizing obyektini holatining muvofiqligini baholash uchun lizing beruvchining ixtiyoriga ko'ra mustaqil baholovchi tashkilot (keyingi o'rinlarda - baholovchi) jalb qilinishi mumkin. Baholovchi lizing obyektini erkin bozorda darhol sotilishi mumkin bo'lgan qiymat (keyingi o'rinlarda lizing obyektining bahosi)ni aniqlaydi. Baholovchini tanlash lizing beruvchi tomonidan bir tarafdin tartibda mustaqil amalga oshiriladi. Lizing obyektining bahosi baholovchi tomonidan o'z hisob-kitob usullarini qo'llagan holda aniqlanadi.

17.8 Baholovchining xizmatiga haq to'lash bilan bog'liq harajatlar lizing oluvchiga yuklatiladi. Baholovchining xizmatiga lizing beruvchi tomonidan haq to'langan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchining talabiga ko'ra to'lovga hisobvaraqlar (hisobvaraqlar-faktura) olgan paytdan boshlab 5 kun ichida baholovchining xizmatiga haq to'lash bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarni to'liq hajmda to'lashi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan solig'ini to'lashi shart.

17.9 Lizing beruvchi tomonidan lizing obyektini tuzilgan lizing shartnomasining 25.6-bandiga asosan olib quyilgan taqdirda lizing oluvchiga lizing obyektini uchun avans sifatida to'langan mablag'lar lizing obyektini eskirish qiymati, lizing obyektidan foydalangan holda topilgan daromadi, davlat boji, sud xarajatlari va boshqa qilingan qo'shimcha xarajatlar chegirilgan holda qaytarib beriladi.

17.10 Lizing oluvchi tomonidan lizing obyektining umumiy qiymatini qoplash hisobiga to'langan lizing to'lovlari chegirilgan holda lizing obyektini umumiy qiymati lizing obyektini bahosidan oshgan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchining talabiga ko'ra bunday talabnoma olgan paytdan boshlab 5 kun ichida farq summasini to'lashi shart.

18. Lizing obyektini bilan bog'liq xavflar

18.1 Lizing obyektini bilan bog'liq barcha xavflar, shu jumladan, uning tasodifiy yuqolishi yoki tasodifiy buzilishi, shuningdek, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanishi xavflari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi. Xavflar lizing oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran lizing oluvchi lizing obyektini har qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi.

18.2 Agar xavflar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shartnomasida belgilangan bo'lmasa, xavflar lizing oluvchiga u lizing obyektini olgan daqiqa (topshirish-qabul qilish)dan e'tiboran o'tadi.

18.3 Agar taklif etilgan lizing objekti lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu lizing oluvchiga lizing objektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizing oluvchi lizing obyektini olgunga qadar barcha xavflar lizing beruvchi zimmasida bo'ladi.

19. Shartnoma tugatilganda lizing obyektining taqdiri

19.1 Ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng, lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomada nazarda tutilgan lizing to'lovlarining to'liq summasi va lizing obyektining sotib olish bahosining to'lanishi sharti bilan lizing objektiga egalik huquqi lizing oluvchiga o'tadi. Taraflar lizing obyektining sotib olish qiymati so'mni tashkil qiladi degan kelishuvga kelishdi.

19.2 Lizing oluvchi ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar ___-son ilovaga muvofiq belgilanadigan lizing to'lovlarining to'liq summasi va lizing obyektini sotib olish bahosini to'lash huquqiga ega. Bunda lizing beruvchi lizing oluvchidan muddatidan oldin to'lovlar uchun haq talab qilish huquqiga ega emas. Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlarining to'liq summasi va lizing obyektini sotib olish bahosi muddatidan oldin to'langan taqdirda, lizing obyektiga egalik huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

20. Boshqa shartlar

20.1 Lizing oluvchining tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida lizing oluvchi tomonidan berilgan ariza va unga lizing objekti topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda lizing oluvchining talabi bilan bir ish kuni ichida lizing shartnomalari bo'yicha iste'molchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

20.2 Lizing oluvchi shartnoma va shartnomalarni tayyorlashga hamda bajarishga aloqador bo'lgan va lizing oluvchining lizing majburiyatlarini bajarishni ta'minlash uchun qilingan barcha xarajatlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi.

20.3 Majburiyatlarini buzgan taraf shartnomada ko'zda tutilgan javobgarlikka qo'shimcha ravishda boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

20.4 Lizing oluvchi shartnoma bo'yicha pul majburiyatlari lozim darajada bajarilishiga barcha mol-mulki, aktivlari va lizing oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlari to'liq yoki qisman bajarilmaganida haqiqiy qarzdorlik summasini undirish qaratilishi mumkin bo'lgan banklardagi hamma hisobvaraqlaridagi mablag'lari, shuningdek, shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan, sud va boshqa xarajatlar uchun javobgar bo'lishini tasdiqlaydi va kafolat beradi.

20.5 Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

20.6 Qarz oluvchining xorijiy valyutada lizing olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valyuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada olingan lizing bo'yicha milliy valyutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar, ushbu lizing oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

20.7 Shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal etiladi, muzokara yo‘li bilan hal etilmagan masala yuzasidan sud organlariga murojaat etiladi.

20.8 Taraflar tomonidan bir-biriga jo‘natiladigan har qanday xabarnoma yoki boshqa xatlar yozma shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday xabarnoma yoki xat pochta, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada ko‘rsatilgan faks raqamiga yo‘llangan xabarnomalar lozim darajada jo‘natilgan deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtdan ko‘rsatilgan manzilda oluvchi shaxs yo‘qligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham jo‘natilgan, deb hisoblanadi.

20.9 Lizing oluvchi tomonidan ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda va muddatda lizing obyektini sug‘urtalash shartnomasi tuzilmagan taqdirda, lizing beruvchi tegishli shartnoma tuzilgunga qadar lizing obyektini saqlab turish huquqiga ega.

20.10 Lizing oluvchi, kafil yoki garovga qo‘yuvchining tashabbusi bilan garov ta‘minotiga o‘zgartirish kiritish, ya‘ni bir garov ta‘minotini boshqa garov ta‘minotiga almashtirish yoki lizing ta‘minotiga bir nechta garov obyektlari taqdim etilgan bo‘lsa, lizing qoldig‘ining qoplangan qismidan ortiq bo‘lgan, yaxlit garov obyektlarini (yagona hujjatga ega bo‘lgan) qisman ta‘qiqdan chiqarish yuzasidan lizing beruvchiga ariza taqdim etilganda va lizing beruvchining vakolatli organi tomonidan belgilangan tartibga asosan arizani ijro qilish uchun rozilik berilgan taqdirda, bankning amaldagi tariflariga asosan bank xizmati undiriladi. (6.3 bandiga asosan lizing qarzdorligi to‘liq so‘ndirilgandagi holatlari bundan mustasno).

21 Korrupsiyaga qarshi kurashish

21.1 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta‘sir o‘tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta‘qiqlanadi.

21.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta‘sir o‘tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo‘yicha taklifini rad qilishi lozim.

21.3 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq korrupsion harakat sodir etilganligi to‘g‘risida ma‘lumot, shubha, shubhaga asos bo‘luvchi dalilga ega bo‘lsa, bu to‘g‘risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

21.4 Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to‘g‘risida tasdiqqa ega bo‘lgunicha ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni to‘xtatib turish xuquqiga ega.

21.5 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o‘ziga og‘dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

22. Maxfiylik

22.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma‘lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

Kreditor o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida lizing oluvchi kreditorga lizing oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

Lizing oluvchi kreditorga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan lizing oluvchining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kafil va/yoki mulkiy kafil bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish lizing oluvchining qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo'lib hisoblanmasligiga mazkur shartnomaga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

23. Fors-Major

23.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan taxdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (sms va mms xabarlar bundan mustasno).

Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

Yuzaga kelgan fors-major holatlari bartaraf bo'lgandan so'ng, mazkur shartnoma shartlari to'liq o'z kuchiga ega bo'ladi.

24. Nizolarni hal etish tartibi

24.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tinch yo‘l bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bank xizmatlari ofisi joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

24.2 Shartnoma bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

25. Shartnomaning amal qilish muddati

25.1 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

25.2 Shartnomaga kiritilayotgan barcha o‘zgarish va qo‘shimchalar yozma shaklda shartnomaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi kelishuvni tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

25.3 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi lizing beruvchida, ikkinchi nusxasi lizing oluvchida saqlanadi. Lizing oluvchi yoki uning vakolatli vakiliga lizing shartnomasi imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etiladi.

25.4 Ushbu shartnoma taraflarning kelishuviga ko‘ra o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Ushbu holatda shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak.

25.5 Taraflardan birining talabiga ko‘ra ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilgan hollarda muddatidan oldin o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

25.6 Ushbu shartnoma quyidagi hollardan birortasi sodir bo‘lgan taqdirda, ushbu bekor qilinish keltirib chiqargan biror-bir zarar lizing oluvchiga qoplanmasdan, lizing beruvchining talabiga ko‘ra bekor qilinishi mumkin:

- a) Agar lizing oluvchi lizing obyektini sezilarli darajada yomonlashtirsa;
- b) Agar lizing oluvchi lizing beruvchining bunday harakatlarni to‘xtatish haqidagi yozma ogohlantirishiga qaramasdan, ushbu shartnoma shartlarini yoki lizing obyektining vazifasini buzgan holda lizing obyektidan foydalansa;
- v) Agar lizing oluvchi shartnomada belgilangan to‘lov muddati mobaynida bir yo‘la ikki va undan ko‘p marta shartnoma bo‘yicha lizing to‘lovlarini to‘lamasa;
- g) Agar lizing oluvchi ushbu shartnoma shartlarini buzsa;
- d) Agar lizing oluvchining faoliyati to‘xtatilsa yoki tugatilsa yohud lizing oluvchining bankrotligi, tugatilishi xavfi paydo bo‘lsa;
- y) Agar lizing oluvchiga sud da’vosi qo‘zg‘atilsa yoki lizing oluvchining mulki xatga olinsa.

25.7 Quyidagi holatlarda lizing oluvchining talabiga ko‘ra ushbu shartnoma sud tartibida bekor qilinishi mumkin:

- a) Agar lizing beruvchi lizing obyektidan asossiz ravishda foydalanishga to‘sqinlik qilsa;
- b) Agar lizing beruvchi lizing obyektini asossiz ravishda topshirmasa yoki lizing obyektini topshirish muddatini buzsa;

25.8 Ushbu shartnomaning 25.4 va 25.6-bandlariga muvofiq shartnoma bekor qilingan (tugatilgan) taqdirda, lizing oluvchi ushbu shartnomada nazarda tutilgan lizing obyektini sotib olish huquqidan foydalanmagan deb hisoblanadi va lizing beruvchining birinchi talabi bilan

O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq lizing obyektini o‘z hisobidan lizing beruvchiga ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarib berishi shart.

25.9 Ushbu shartnomaning 25.7-bandi, a) kichik bandiga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda, lizing oluvchi ushbu shartnomada nazarda tutilgan lizing obyektini sotib olish huquqidan foydalanmagan deb hisoblanadi va lizing beruvchining birinchi talabi bilan lizing obyektini lizing beruvchiga O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq, ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarib berishi shart. Bunda lizing obyektini qaytarish bilan bog‘liq barcha xarajatlar lizing beruvchiga yuklatiladi.

25.10 Lizing oluvchi ushbu shartnoma bekor qilingan (tugatilgan)dan so‘ng lizing obyektini qaytarilmagan taqdirda, uning lizing obyektiga keyinchalik egalik qilishi noqonuniy hisoblanishi va lizing oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq begona mulkning noinsof egasi deb tan olinishi xabardor qilindi.

25.11 Lizing beruvchining lizing obyektini transportda tashish, lizing oluvchiga topshirish joyigacha yetkazish va uni tushirish bo‘yicha xarajatlari, shuningdek, lizing obyektini sotib olish va uni lizing oluvchiga topshirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlari ko‘paygan (kamaygan) taqdirda, lizing obyektining umumiy qiymati lizing beruvchi tomonidan bunday xarajatlar summasiga o‘zgartirilishi mumkin.

26. Taraflarning qayd etish ma’lumotlari va imzolari

Lizing beruvchi	Lizing oluvchi
Manzili _____	Manzili _____
MFO _____ INN _____	MFO _____ INN _____
x\r _____	x\r _____
Bank _____	Bank _____
Telefon _____	Telefon _____
Aloqa markazi 0 800 1 200 200	
E-mail: contact@hamkorbank.uz	
Bank vakili _____	Rahbari _____
M.O‘.	Bosh hisobchisi _____